

RISK MENEJMENTINING BANKLARDA TUTGAN O‘RNI

Inoyatov Sarvar Xidoyatillo o'g'li

O‘zsanoatqurilishbank ATB Risk menejment departamenti

integratsiyalashgan risk xizmati Katta menejeri

Annotatsiya: Mazkur maqolada banklarda risk menejmentining tutgan o‘rni, uning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Bank faoliyatida yuzaga keladigan asosiy risk turlari va ularni boshqarish mexanizmlari yoritib berilgan. Shuningdek, risklarni samarali boshqarish orqali banklarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash va umumiy faoliyat samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida risk menejmenti tizimini takomillashtirish banklarning barqaror rivojlanishida muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: risk, risk menejmenti, bank tizimi, kredit riski, likvidlik riski, operatsion risk, moliyaviy barqarorlik, kapital yetarliligi, bank samaradorligi, risklarni boshqarish, bank faoliyati

Risk bank faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lgan muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi[5]. U moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar ehtimoli va ularning salmog‘ini ifodalaydi. Zamonaviy bank tizimining rivojlanishi, moliyaviy bozorlarning globallasuvi hamda iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi risk tushunchasining ahamiyatini yanada oshirdi[3]. Ayniqsa, tovar-pul munosabatlarining kengayishi, kredit operatsiyalarining hajmi ortishi va yangi moliyaviy instrumentlarning joriy etilishi banklarda risklarni chuqur tahlil qilish va samarali boshqarishni zaruriyatga aylantirdi.

Bank faoliyatida risklar kundalik operatsiyalarning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, kredit risklari, foiz stavkasi risklari, likvidlik risklari, valyuta risklari hamda operatsion risklar bank faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi[4]. Ushbu risklar bankning moliyaviy barqarorligiga, to'lov qobiliyatiga va umumiy rentabelligiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shu sababli banklar o'z faoliyatida risklarni aniqlash, baholash va nazorat qilish tizimini yo'lga qo'yishi muhim ahamiyat kasb etadi. Risk menejmenti bank tizimining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. U risklarni aniqlash, tahlil qilish, baholash va ularni kamaytirish choralarini ishlab chiqish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy bank amaliyotida risk menejmenti nafaqat himoya vositasi sifatida, balki strategik boshqaruv elementi sifatida ham qaraladi. Chunki to'g'ri tashkil etilgan risk menejmenti tizimi bankka bozor sharoitlarida raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish hamda foydani maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, banklarda risk menejmenti xalqaro standartlar asosida tashkil etilishi ham muhimdir. Xususan, Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan me'yorlar banklarda kapital yetarliligi, risklarni baholash va ularni boshqarish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi[6]. Bu esa banklarning nafaqat milliy, balki xalqaro moliya bozorida ham ishonchli faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Banklarda risklar har doim ham faqat salbiy oqibatlarga olib kelavermaydi. Aksincha, ular to'g'ri boshqarilgan taqdirda yangi imkoniyatlar va yuqori daromad manbalarini ham yaratishi mumkin. Shu bois risk va daromad o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bank menejmentining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Risklarni optimal darajada boshqarish orqali banklar o'z faoliyatining samaradorligini oshiradi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishadi. Risk menejmenti bank faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, u bank tizimining barqarorligi, ishonchliligi va samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda risklarni samarali boshqarish banklarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va moliyaviy bozorlarning barqaror rivojlanishining muhim omili hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli farmoni mamlakat bank tizimini kompleks rivojlantirish, uni zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan muhim hujjatlardan biri hisoblanadi[1]. Mazkur farmonda bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, banklarning kapitallashuv darajasini kuchaytirish, shuningdek, risklarni samarali boshqarish tizimini joriy etish alohida belgilab o‘tilgan. Farmon talablaridan kelib chiqib, tijorat banklarida risk menejmenti tizimini takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan. Xususan, bank faoliyatida yuzaga keladigan kredit, likvidlik, foiz stavkasi, valyuta hamda operatsion risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish mexanizmlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati ortib bormoqda. Bu esa banklarda risk menejmentini nafaqat nazorat vositasi, balki strategik boshqaruvning muhim elementi sifatida qarashni talab etadi. Mazkur farmon bank tizimini isloh qilish jarayonida bank boshqaruvida korporativ tamoyillarni joriy etish, bank faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilab beradi. Samarali korporativ boshqaruv bank faoliyatida yuzaga keladigan risklarni baholash va boshqarish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bank tizimini isloh qilish jarayonida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. Bundan tashqari, PF-5992-sonli farmon bank tizimini xalqaro moliya bozorlariga integratsiya qilishni nazarda tutadi. Bu jarayonda xalqaro standartlar, xususan Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan me‘yorlar asosida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kapital yetarliligi, likvidlik ko‘rsatkichlari va risklarni baholash mezonlarini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish banklarning barqarorligini oshirish bilan bir qatorda, xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi[7]. Farmon doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar banklarda risk va daromad o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash imkonini kengaytiradi. Chunki samarali risk menejmenti tizimi banklarga nafaqat ehtimoliy yo‘qotishlarni minimallashtirish, balki mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada

foydalanish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida banklarning rentabelligini oshirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Banklarda risk-menejment tizimi samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlarning dinamikasi muhim mezonlardan biri hisoblanadi[3]. Chunki aynan ushbu ko'rsatkichlar orqali bank tizimida risklarni boshqarish darajasi, ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri hamda faoliyat samaradorligi aniqlanadi. Zamonaviy bank tizimida risklarni boshqarish jarayonlari kuchayib borayotgani natijasida asosiy moliyaviy indikatorlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

So'nggi yillarda bank tizimida risk-menejment tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida kredit portfeli sifati, likvidlik darajasi, kapital yetarliligi hamda operatsion samaradorlik ko'rsatkichlarida dastlabki ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish jarayonlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. 2020–2025-yillar oralig'ida bank tizimida asosiy risk indikatorlarida ma'lum ijobiy o'zgarishlar kuzatilib, ularning xalqaro prudensial talablarga moslashish jarayoni davom etmoqda. Mazkur yondashuv orqali banklar nafaqat mavjud risklarni, balki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy yo'qotishlarni ham oldindan baholash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa risklarni oldindan aniqlash va ularning salbiy ta'sirini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, likvidlik riski va kapital yetarliligi ko'rsatkichlari ham banklarda risk-menejment tizimining samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Likvidlikni samarali boshqarish banklarning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini ta'minlasa, kapital yetarliligi esa kutilmagan yo'qotishlarni qoplash imkonini yaratadi. Ushbu ko'rsatkichlarning xalqaro standartlarga mos ravishda shakllanishi bank tizimining umumiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Operatsion risklarni boshqarish tizimining rivojlanishi ham bank faoliyatining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda[7]. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, ichki nazorat tizimining takomillashuvi va boshqaruv jarayonlarining

avtomatlashtirilishi operatsion xatoliklar va yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa bank xizmatlari sifati va mijozlar ishonchini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, bank tizimida moliyaviy ko‘rsatkichlar dinamikasida kuzatilayotgan ijobiy tendensiyalar risk-menejment tizimini takomillashtirish jarayonlari bilan uyg‘un ravishda shakllanmoqda. Risklarni kompleks va tizimli boshqarish bank faoliyatida ehtimoliy yo‘qotishlarni kamaytirish hamda barqaror rivojlanish uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Banklarda risk menejmenti tizimining ahamiyatini tahlil qilar ekanmiz, zamonaviy bank amaliyotida turli risklarni boshqarish vositalari va mexanizmlarining qo‘llanilishi ushbu sohaning muhim rivojlanish bosqichiga aylanganini ko‘rish mumkin. Risklarni boshqarishning zamonaviy usullari bank faoliyatining barqarorligini ta‘minlash bilan birga, moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Xususan, kredit riskini boshqarishda qo‘llaniladigan baholash tizimlari qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Ushbu mexanizmlar kredit portfelining sifati oshirish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish hamda bank daromadlilikini barqarorlashtirishda yuqori samaradorlikni namoyon etadi. Bu ayniqsa yuqori riskli mijozlar bilan ishlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va kreditlash faoliyatida ehtiyotkorlikni ta‘minlaydi.

Shu bilan birga, kapital va likvidlikni boshqarishga qaratilgan zamonaviy vositalar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ular banklarga o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish, kutilmagan moliyaviy zarbalarga bardosh berish hamda bozordagi o‘zgarishlarga tez moslashish imkonini yaratadi. Bunday mexanizmlarning joriy etilishi bank faoliyatida xavfsizlik darajasini sezilarli oshiradi. Alohida ta‘kidlash joizki, operatsion risklarni boshqarish tizimi ham zamonaviy bank amaliyotida muhim o‘rin tutadi. Axborot texnologiyalarining keng qo‘llanilishi, ichki nazorat tizimlarining takomillashuvi hamda jarayonlarning avtomatlashtirilishi operatsion

xatoliklar va yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa bank xizmatlari sifatini oshirish va mijozlar ishonchini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Turli risklarni boshqarish vositalarini solishtirma tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har bir risk turi uchun alohida yondashuv va boshqaruv mexanizmlari zarur. Masalan, kredit riskini boshqarish usullari likvidlik yoki operatsion risklarni boshqarishdan sezilarli farq qiladi. Shu sababli banklarda risk menejmenti tizimi kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi va har bir risk turiga individual tarzda moslashtirilishi lozim. Bu esa bank faoliyatida risklarni boshqarishda yagona standart yondashuvdan ko‘ra, vaziyatga moslashuvchan va tahliliy qarorlar qabul qilish zarurligini ko‘rsatadi. Natijada, risk menejmenti tizimini samarali tashkil etish banklarning barqaror rivojlanishini ta‘minlash, moliyaviy xavflarni minimallashtirish va uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Banklarda risk menejmenti tizimini nazariy jihatdan umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, risklarni boshqarish bank faoliyatining ajralmas va strategik tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda banklar faoliyati turli xil ichki va tashqi risk omillari ta‘siri ostida shakllanadi. Shu sababli risk menejmenti tizimi faqatgina xavflarni kamaytirishga qaratilgan mexanizm bo‘lib qolmay, balki bankning umumiy rivojlanish strategiyasini belgilovchi muhim boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Nazariy yondashuvlarga ko‘ra, banklarda risk menejmenti tizimi bir necha asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi: risklarni aniqlash, ularni baholash, monitoring qilish va nazorat ostida boshqarish. Ushbu bosqichlarning har biri o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning samarali tashkil etilishi bank faoliyatining barqarorligini ta‘minlaydi. Ayniqsa, risklarni erta aniqlash va prognozlash mexanizmlarining rivojlanishi banklarga ehtimoliy yo‘qotishlarning oldini olish imkonini beradi. Shuningdek, nazariy jihatdan risk va daromad o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bank faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. Ya‘ni, yuqori daromad olish imkoniyati ko‘pincha yuqori risk bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli banklar uchun asosiy vazifa riskni to‘liq yo‘q qilish emas, balki uni optimal

darajada boshqarish va nazorat qilishdan iboratdir. Bu esa risk menejmenti tizimini samarali tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, bank tizimida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish moliyaviy ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, kredit portfeli sifatining yaxshilanishi, likvidlik ko'rsatkichlarining barqarorlashuvi va kapital yetarliligining oshishi risk menejmenti tizimining samaradorligini tasdiqlaydi. Bu esa banklarning nafaqat qisqa muddatli moliyaviy natijalarini, balki uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari ham mustahkamlanmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro standartlar asosida risklarni boshqarish tizimining joriy etilishi banklarning global moliya bozorlariga integratsiyalashuvini kuchaytiradi. Xususan, Bazel tamoyillari, IFRS standartlari va zamonaviy risk baholash modellarining qo'llanilishi banklarda risklarni boshqarish sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa bank tizimining shaffofligi, ishonchliligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, banklarda risk menejmenti tizimi samaradorligi ko'p jihatdan korporativ boshqaruv darajasi, axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi hamda xodimlarning malakasi bilan bevosita bog'liq. Kuchli ichki nazorat tizimi, zamonaviy analitik vositalar va malakali kadrlar mavjud bo'lgan banklarda risklarni boshqarish jarayoni ancha samarali yo'lga qo'yiladi. Shu bois inson kapitalini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish risk menejmentining muhim tarkibiy elementlari hisoblanadi. Natijaviy jihatdan qaralganda, banklarda risk menejmenti tizimini samarali tashkil etish bir qator ijobiy iqtisodiy natijalarga olib keladi. Jumladan, moliyaviy yo'qotishlar kamayadi, bankning to'lov qobiliyati va likvidligi mustahkamlanadi, investorlar va mijozlar ishonchi ortadi hamda bankning umumiy rentabelligi oshadi. Bu esa o'z navbatida bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, banklarda risk menejmenti tizimi ularning barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Bank faoliyati turli xil risklar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni to'g'ri aniqlash, baholash va boshqarish moliyaviy yo'qotishlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, risklarni samarali boshqarish banklarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, kredit portfeli sifati yaxshilanadi, likvidlik darajasi barqarorlashadi, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi. Bu esa banklarning umumiy faoliyat natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, risk menejmenti tizimi banklarda risk va daromad o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. To'g'ri tashkil etilgan risk boshqaruvi tizimi banklarga nafaqat ehtimoliy xavflarni kamaytirish, balki mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish imkonini ham beradi.

Umuman olganda, banklarda risk menejmentining tutgan o'rni strategik ahamiyatga ega bo'lib, u bank faoliyatining ishonchliligi, barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu bois risklarni boshqarish tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish bank tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli farmoni. Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida.
2. Rose, P.S., Hudgins, S.C. Bank Management and Financial Services. – New York: McGraw-Hill, 2013
3. Saunders, A., Cornett, M.M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. – New York: McGraw-Hill, 2018.
4. Hull, J.C. Risk Management and Financial Institutions. – Wiley, 2015.



5. Mishkin, F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Pearson Education, 2019.
6. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Management of Risk. – Basel, 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarida risklarni boshqarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2021